



ATOYI LIRIKASIDA BADIY SAN'ATLARNING QO'LLANILISHI

Choriyev Nurbek Jumanazar o'g'li

Termiz davlat universiteti o'zbek

filologiyasi fakulteti 1-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Atoyi ijodi va unda ishlatilgan serjilo badiiy san'atlar tahlil etilgan. Shuningdek, shoir lirikasi ma'noviy ko'lami ham ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Lirika, badiiy san'atlar, tanosub, husni ta'lil, tashxis, tajohil ul-orif, nido, talmeh.

Nafaqat o'zbek xalqining, balki butun turkiy xalqlarning faxr-u iftixor ko'zgusi bo'lgan ulug' shoir, davlat arbobi Alisher Navoiy o'zidan kitobxonlar ko'nglini bir o'qishdayoq zabt etadigan boqiy va durdona asarlar qoldirdi. Tarix sahifalari orasida ayrim shoirlar bor-ki, ularning nomi ko'p tilga olinmasa-da, yozgan satrlari ming yillik ruhiyatimizda yangraydi. Ulardan biri — Atoyi. XV asrning ilm-fan va madaniyat porlagan davrida yashagan bu shoir, Alisher Navoiy davrining zamondoshi bo'lib, she'riyati bilan o'ziga xos iz qoldirgan. Atoyi – bu faqat bir taxallus emas. Bu nom ostida yurakdan chiqqan, xalq dardini, inson qalbining nozik tuyg'ularini ifoda etgan shoir yashaydi. Atoyi haqida tarixiy ma'lumotlar ko'p emas. Ammo uning she'rlari, mazmundor ruboiylari, turkiy tilda yozilgan lirikalari uni unutmasligimizga sabab bo'ladi. U, ayniqsa, xalq og'zaki ijodiga yaqin turadi. Uning asarlarida so'z san'atining nafisligi, sodda lekin chuqur ma'no, va eng muhimi — samimiyat bor. Atoyi hayotining ko'plab jihatlari bizga qorong'u. Lekin



har bir ijodkorni yashatadigan narsa — bu u qoldirgan merosdir. Atoyi o‘zining go‘zal g‘azal va ruboiylari orqali xalq yuragiga kirib bordi. Uning ijodida nafaqat muhabbat, balki hayot, insoniylik, e‘tiqod va sabr kabi mavzular teran ifodalangan. Navoiy singari buyuk shaxslarning e‘tirofiga sazovor bo‘lgan bu shoir, o‘z davrida adabiy muhitning ajralmas bo‘lagi edi. Hatto Alisher Navoiy ham o‘zining “Majolis un-nafois” asarida Atoyi haqida iliq so‘zlar yozgan. Bu e‘tirof Atoyi she‘riyati nafisligi va badiiy kuchining yaqqol dalilidir. Bugun, oradan besh asrdan ortiq vaqt o‘tsa-da, Atoyi satrlaridan taralayotgan ruhiyat bizni befarq qoldirmaydi. Biz bu satrlar orqali o‘zimizni, o‘z ildizimizni, tariximiz va ma‘naviyatimizni tanib olamiz. Zamon o‘zgaradi, insonlar ketadi, lekin yurakdan chiqqan so‘z — qoladi. Atoyi ana shunday qoladigan, yuraklarda yashaydigan so‘z egasidir.

Endi Atoyi lirikasi namunalaridagi badiiy san’atlarni tahlil qilamiz. Lirika (yun. cholg‘u asbobi)- adabiy tur sifatida qadimdan shakllangan bo‘lib, o‘zining bir qator xususiyatlariga egadir. Lirikaning belgilovchi xususiyati sifatida uning tuyg‘u-kechinmalarni tasvirlashi olinadi. Ya’ni, epos va dramadan farq qilaroq, lirika voqelikni tasvirlamaydi, uning uchun voqelik lirik qahramon ruhiy kechinmalarining asosi, ularga turtki beradigan omil sifatidagina ahamiyatlidir. Lirikadagi deyarli hamma janrlarda go‘zal badiiy san’atlar ishtirok etadi.

Jamoling vasfini qildim chamanda,

Qizordi gul uyottin anjumanda.

Atoyi ijodiga mansub ushbu baytda tashxis she‘riy san’ati qo‘llanilgan. Tashxis (arabcha – jonlantirish) – baytda insonga xos bo‘lgan xususiyatlarni narsa va hodisalarga ko‘chirib jonlantirish she‘riy san’ati. Bu yerda “gul uyatdan qizarmoqda”, ya’ni uyatdan qizarish insonga xos xususiyat, bu voqea gulga ko‘chirilganligi uchun ham tashxis san’ati hosil qilinmoqda. Shuningdek, bu baytda husni ta’lil badiiy san’ati ham ishtirok etgan. Husni ta’lil (arabcha-chiroyli dalillash)- baytda shoir haqiqiy hayotga to‘g‘ri kelmaydigan



holatda vaziyatni shoirona dalillaydi, bu yerda yorning jamolini eshitib, chamandagi gullarning biri uyatdan qizarib yangi qizil gulning paydo bo'lishi husni ta'lilni tashkil etgan.

Solib borma meni, ey Yusufi husn,

Bukun Ya'qubtek bayt ul-hazanda.

Ushbu misralarda talmeh badiiy san'atining go'zal namunasi uchraydi. Talmeh (arabcha- chaqmoq chaqishi)- baytda tarixiy shaxs, voqea, joy nomlarining keltirilishi. Bu yerda Yusuf hamda Ya'qub payg'ambarlar nomi keltirilgan va ular talmeh san'atini hosil qilgan. Shu bilan birga, har bir tarixiy shaxs ma'lum bir ma'noni anglatishga xizmat qiladi. Yusuf- go'zallik timsoli bo'lsa, Ya'qub esa sabr tushunchasini ifodalamoqda. Bundan tashqari, baytda nido she'riy san'ati ham qatnashgan. Nido baytda muayyan shaxs, narsa yoki voqea-hodisaga murojaat etish sanaladi. Yuqoridagi ikkilikda “ ey Yusufi husn” deb Yusuf payg'ambarga murojaat qilinishi nido san'atini bildirmoqda.

Ey, begim, ushbu yuz degul, shams bila qamarmudur?

Ey, begim, ushbu so'z degul, shahd bila shakarmudur.

Keyingi qatnashgan badiiy san'at- tajohil ul-orif (arabcha – bilib-bilmaslikka olish). Bunda ko'pincha mumtoz she'riyatimizda , qisman hozirgi nazmda ham qo'llanilgan badiiy san'at , shoir keltirilgan voqea-hodisa , holatlarni bilib turadi , ammo bilmaslikka oladi , baytdagi labning shirinligidan yopishib qolmasligi aniq , lekin uni bilib-turib qayta so'raydi. Shuningdek, baytda tarse (arabcha- ipga marjondek tizish) san'ati ham qo'llanilgan. Tarseda muayyan baytdagi barcha so'zlar ketma-ketlikda vazndosh, ohangdosh va qofiyadosh bo'lib keladi.

Tamanno qilg'ali la'lingni ko'nglum,

Kishi bilmas anikim, qoldi qanda.



Baytda istiora (arabcha- qarz olish) badiiy san'atining yuksak namunasi ishtirok etgan. Bu san'at qisqartirilgan o`xshatish deb ham yuritiladi hamda unda bir o`xshatishni ifodalash uchun tashbeh san'atining vosita va o`xshatilmish kabi unsurlari tushib qolgan bo`lishi kerak. Baytda la'l so`zi ushbu san'atni hosil qilgan, negaki misrada –dek, -day, kabi, singari, yanglig` kabi vosita ham va o`xshatilayotgan lab ham tushib qolgan.

Zulfunj cheriki jamol mulkin

Oldi ko`zung ittifoqi birla.

Ushbu baytda tanosub san'ati qo`llanilgan. Tanosub ( arabcha – bir-biriga munosib) – she`riyatimizda keng qo`llanib kelingan , ba`zan “mutanosib” , “tavfiq”, “iytilof” kabi atamalar bilan ham yuritilgan. Bunda shoir o`z baytida ma`nodosh tushunchalarni , chunonchi: oy va quyosh , o`q va yoy , qosh va ko`z , gul va lola va shularga o`xshaganlar birga mislarda ishtirok etadi. Baytdagi cherik, mulk va ittifoq so`zlari ushbu san`atni ifodalab kelgan.

Xulosa qilib aytganda, Atoyi lirikasi g`oyatda maftunkor va unda qo`llanilgan badiiy san`atlarni ham to`la-to`kis tahlil etish uddalab bo`lmas topshiriqdek murakkab vazifa. Shoirning g`azallarida insoniy kechinmalar, muhabbat iztiroblari, vafodorlik, go`zallikka bo`lgan zavq ustuvor o`rin egallaydi. Ayniqsa, Atoyi lirikasida sevgi faqat jismoniy yaqinlik emas, balki ma`naviy yuksalish, ruhiy poklanish vositasi sifatida talqin qilinadi. Bu jihati bilan u Navoiy an`analariga yaqin turadi. Atoyi o`z she`rlari orqali o`quvchini nafaqat estetik zavq bilan to`ldiradi, balki uni fikr yuritishga, hayot va muhabbat mohiyatini anglashga da`vat etadi. Uning har bir misrasi zahirida yurakning olovi, dilning nozik ohanglari seziladi. Bu lirika odamga ichki dunyosiga nazar solish, o`zini tanish imkonini beradi. Darhaqiqat, Atoyi ijodi — bu so`z seyrining kuchi, ruhiy yetuklikning timsoli. Bugun biz bu she`rlardan faqat tarixiy qadriyat sifatida emas, balki zamonaviy inson ruhiyati bilan hamohang bo`lgan falsafiy meros sifatida bahramand bo`lishimiz mumkin.



Shoir yuragidan to`kilgan satrlar asrlar osha hanuz yuraklarga yetib bormoqda, yuraklarni larzaga solmoqda. Shu bois, Atoyi lirikasini ulug`lash — bu bizning ma`naviy merosimizni e`zozlash, o`zligini anglagan xalq sifatida o`z badiiy olamimizga qayta va qayta nazar tashlash demakdir. Uning she`rlari bugun ham bizni hayajonga soladi, bugun ham yuraklarga iliqlik baxsh etadi. Ana shu jihatlari bilan Atoyi ijodi abadiy, uning lirikasidagi muhabbat esa doimo hayotiydir. Uning g`azallarini nafaqat o`qib, balki ma`nosini anglab, uqib olishimiz darkor, shoirning asarlari boqiy va bardavom yashagay, albatta. Zero, ulug`adibning qalamidan to`kilgan ushbu asar adabiyot xazinasining go`zal la`l-u javohiridir!

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. To`xta Boboyev. Adabiyotshunoslik asoslari. O`zbekiston nashriyoti.Toshkent-2002.
2. Dilmurod Quronov. Adabiyotshunoslikka kirish . Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. Toshkent- 2004.